

MEHNAT MUHOFAZASINING BARCHA IQTISODIY TARMOQLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Yuldasheva Nozima Lazizjon qizi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Gidromelioratsiya” fakulteti 1-bosqich talabasi Email:
nozimay42@gmail.com

Axmedova Marjona G'ayratovna

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Gidromelioratsiya” fakulteti 1-bosqich talabasi Email:
marjonaaxmedova2610@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola mehnat muhofazasini takomillashtirish, ish sharoitlarini yaxshilash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, xodimlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish va mehnat muhofazasining barcha iqtisodiy tarmoqlar bilan uzviy bog'liqliklari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z: mehnat muhofazasi, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, qurilish, xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, qurilish.

KIRISH

Har bir iqtisodiy tarmoq - sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalari va boshqa barcha sohalarda mehnat muhofazasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu tarmoqlar o'zlarining maxsus xavfsizlik choralarini talab qiladi. Mehnat muhofazasi masalalarining muhim jihati shundaki, u barcha tarmoqlar uchun umumiy qonuniyatlarga ega bo'lsa-da, har bir tarmoqning o'ziga xos xavf-xatarlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Mehnatni muhofaza qilish deganda mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktikaga oid munosabatlar tushuniladi [1].

Mehnatni muhofaza qilish - ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insonning mehnat xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganishni talab etadi. Shu sababli, inson mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384-322-yillarda ijod qilgan Aristotel, eramizdan oldingi 460-377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi [2].

O'zbekistonda mehnat muhofazasi va xavfsizligi ko'rsatkichlari turli sohalarda monitoring qilinmoqda. 2023-yil statistikasiga ko'ra, yurtimizda iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichi 15038,3 ming nafarni [3] tashkil etayotgan bo'lsa, ular orasida eng ko'p bandlik



qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (22,3%), sanoat (11,1%), ulgurji va chakana savdo (10,5%), qurilish (9,9%), hamda ta'lim (8,6%) sohalarida qayd etilgan [4].

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati

Ishlab chiqarish vaqtida ishchilar va xodimlar salomatligini saqlash, ularning mehnatini to'liq muhofaza etish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu Respublikamizning "Mehnatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunida o'z aksini topgan bo'lib, unda quyidagilar alohida ta'kidlangandir:

– korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligi;

– mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirib borish;

– mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona tartib-qoidalar belgilab qo'yish;

– mehnatni ekologiya jihatidan xavfsiz sharoitlar yaratilishini va ish joylarida atrof-muhit holati muntazam nazorat etilishini ta'minlash

– korxonalarda mehnatni muhofaza qilish talablari hamma joyda bajarilishini nazorat qilish;

– mehnatni muhofaza qilishni mablag' bilan ta'minlashda davlatning ishtirok etishi;

– oliy o'quv yurtlarida mehnat muhofazasi bo'yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash;

– xavfsiz texnika, texnologiyalar va xodimlarni himoyalash vositalari ishlab chiqilishi hamda joriy etilishini rag'batlantirish;

– fan, texnika yutuqlarida hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vatanimiz va chet el ilg'or tajribasidan keng foydalanish;

– korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz shartsharoitlarini yaratishga ko'maklashuvchi soliq siyosatini yuritish;

– mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish chog'ida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish tamoyillariga asoslanadi [5].

Bugungi kunda mehnat muhofazasi barcha iqtisodiy tarmoqlarda muhim ahamiyatga ega, chunki bu xodimlarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Har bir sohada mehnat muhofazasi qoidalari va talablari ishlab chiqarish xususiyatlariga qarab shakllantiriladi va qabul qilinadi. Quyida mehnat muhofazasining asosiy iqtisodiy tarmoqlari bilan bog'liqligi keltirilgan:

Sanoat va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi

Mehnat muhofazasi sohasi va sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi bog'liqlik mehnat xavfsizligini ta'minlash va ishchi kuchining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda mehnat muhofazasi va sanoat ishlab chiqarilishi o'rtasidagi



bog'liqliklar bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, mehnat muhofazasi sohasida yangi qonunlar va qarorlar qabul qilinayotganligi huquqiy asoslarning yangilanishiga olib kelmoqda.

Xususan, 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksi qonuniy kuchga kirganligi va mehnat muhofazasiga oid boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi, ish joylarida xavfsizlikni ta'minlash va mehnat sharoitlarini yaxshilashga, ishchilarning xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga ega bo'lishlariga oid huquqlarini mustahkamladi [6].

Ikkinchidan, texnik standartlarining joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlik texnikasi yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarga mos bo'lgan uskunalar qo'llanilmoqda. Uchinchidan, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tartibini joriy etilganligi mehnat xavfsizligini ta'minlashda xodimlar malakasini oshirish uchun juda muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda ishchilarga xavfsizlik qoidalarini o'rgatish bo'yicha kurslar va treninglar tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, davlat inspeksiyasi organlari tomonida ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat sharoitlari muntazam tekshirilib kelmoqda, xavfsizlik talablariga rioya qilinishi uchun choralar ko'rilmqda. Eng muhimi jihati raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali xavfsizlik qoidalari buzilishini tezkor aniqlash va bartaraf etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu yuqorida sanab o'tilgan islohotlar sanoat korxonalarida mehnat muhofazasining yangi, zamonaviy bosqichga chiqishiga yordam beradi, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va baxtsiz hodisalarni oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat muhofazasi

Mehnat muhofazasi va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi munosabat juda muhim, ayniqsa bu sohadagi ishchilar xavfsizligini va farovonligini oshirish muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi ish joylari tabiatan xavfli bo'lgani uchun unda jarohatlar va halokatlar ham ko'p uchrab turadi. Bu sohada samarali xavfsizlik choralari ko'rish nafaqat ishchilarni himoya qilish, balki barqaror qishloq xo'jaligi biznesini rivojlantirish uchun ham zarur. Sog'liq uchun xavflarni boshqarish va xavfsizlik choralari ko'rish mehnat muhofazasi tizimining muhim komponentlaridan biridir. Bu yondashuv xodimlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf omillarini aniqlash, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish, shuningdek, xavfsizlik choralari ta'minlash orqali mehnat jarayonini xavfsiz tashkil etishga qaratilgan. Bu sohada dehqonlar va qishloq xo'jaligi ishchilari turli xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz kelishadi, jumladan, mexanizatsiya avariyalari, kimyoviy moddalar bilan aloqa va atrof-muhit xavflari. Xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish, shaxsiy himoya vositalarini (PPE) ishlatish va mexanizmlarni saqlash bu xavf-xatarlarni kamaytirish uchun muhim amaliyotlar hisoblanadi.



Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida mehnat xavfsizligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi va ishchi kuchi taqchilligi kabi muammolar qishloq xo'jaligida ishlayotgan xodimlarning nafaqat yuqori malakaga ega bo'lishini, balki xavfsiz va himoyalangan ish sharoitlariga ega bo'lishini taqozo etadi. Mehnat xavfsizligiga berilayotgan ushbu e'tibor qishloq xo'jaligi amaliyotlarining barqarorligini ta'minlash bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu soha qishloq xo'jaligi bilan ham chuqur bog'liq, chunki bu sohada ko'plab xodimlar jismoniy mehnat qiladi va turli xavflar bilan yuzlashadi. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiya darajasining pastligi, ishchi sharoitlarining qiyinligi va xavfsizlikka yetarli e'tibor qaratilmasligi mehnat muhafazasi masalalarini yanada dolzarb qilad. Bugungi kunda

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida mehnat muhofazasini yaxshilash uchun quydagi islohatlar amalga oshirilmoqda:

Birinchidan, xodimlar o'qitish va malakasini oshirish ko'nikmalari joriy etilmoqda. Qishloq xo'jaligi ishchilariga xavfsizlik qoidalari, mehnat muhofazasi usullari va zamonaviy texnika bilan ishlash texnikasi bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Bu orqali xodimlarning xavfsizlikka rioya qilishi ta'minlanmoqda. Ikkinchidan, Mehnat sharoitlarini yaxshilash ishlari olib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligida ishlovchilar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish, xavfsizlik talablariga javob beruvchi ish kiyimlari va vositalar bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Uchinchidan, nazorat va monitoring masalari ham qishloq xo'jaligi korxonalarida xavfsizlik talablariga rioya etilishi uchun maxsus nazorat organlari tomonidan monitoring olib borilmoqda. Bu ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik choralari ta'minlanishini nazorat qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida xavfsizlik talablarini kuzatish va mehnat muhofazasi bo'yich statistik ma'lumotlarni to'plash uchun raqamlashtirish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Ushbu islohatlar qishloq xo'jaligida ishlovchilar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga, jarohatlar va baxtsiz hodisalarni kamaytirishga shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi.

Transport va logistika sohalarida mehnat muhofazasi

Bevosita mehnat muhofazasi sohasi transport va logistika sohalari bilan ham bog'liqdir. Chunki bu sohada ishchi kuchi transport vositalaridan foydalanadi, yuk tashish va yuklash jarayonlari bilan shug'ullanadi. Transport va logistika sohalarida mehnat muhofazasi xodimlarining xavfsizligini ta'minlash avariya va baxtsiz hodisalar sonini kamaytirish uchun muhim hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligi, yuklarni bo'shatish ishlari, transport vositalarining texnik holati kabi masalalarda xavfsizlikka e'tibor qaratilmasa, jarohatlar va zararli ta'sirlar yuzga kelishi mumkin. Jumladan, transport va logistika sohalaridagi muammolarni o'rganish



bo'yicha yurtimizda alohida qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lib, ulardan biri 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining 305-son qaroridir [7].

Ushbu qaror xodimlarning yo'l harakati qoidalariga rioya qilishini ta'minlaydi, yuk tashishda xavfsizlik choralari ko'rilishini talab qiladi va xavfli yuklar bilan ishlash tartibini belgilaydi. Ikkinchidan, transport vositalarining texnik holatini nazorat qilish orqali ularning xavfsiz ishlashiga ham alohida e'tibor berilgan. Yilning muayyan vaqtlarida avtomobillar texnik ko'rikdan o'tkazilishi va ularning ishonchligi va xavfsizligi tekshirib borilishi ham ko'rsatilgan.

Bu islohatlar xodimlar xavfsizligini oshirish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash va yuk tashish jarayonlaridagi xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada, transport va logistika sohasida baxtsiz hodisalar soni kamayadi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratiladi.

Qurilish sohasida mehnat muhofazasi

Mehnat muhofazasi sohasi qurilish sohasida o'ta muhim hisoblanadi, chunki qurilish ishchilari turli darajadagi xavflar bilan tez-tez duch keladi. Qiyin mehnat sharoitlari, balandliklarda ishlash, og'ir yuklarni ko'tarish va qurilish texnikalari bilan bog'liq xavflar mehnat muhofazasiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.


Mehnat muhofazasi me'yorlariga rioya qilmaslik qurilish maydonlarida baxtsiz hodisalar va jiddiy jarohatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, qurilish sohasidagi muammolarni o'rganish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilyapti. Xususan, 2020-yilda "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5963-son farmoni qabul qilingan [8].

Farmonning asosiy maqsadi O'zbekistonning qurilish sohasini modernizatsiya qilish, huquqiy tizimni takomillashtirish va sanoatdagi samaradorlikni oshirishdir. Farmonda qurilish standartlarini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ruxsatnomalar tizimini soddalashtirish va qurilish bozorida raqobatni kuchaytirish kabi vazifalar belgilangan.

Shuningdek, qurilish sohasidagi korxonalar xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari uchun maxsus inspeksiya organlari tomonidan muntazam tekshiruvlar o'tkazilmoqda. Nazorat organlari xavfsizlik talablarini buzgan korxonalarga nisbatan jiddiy choralar ko'rmoqda.

Ushbu islohatlar qurilish sohasida mehnat muhofazasini mustahkamlashga, baxtsiz hodisalar va jarohatlar sonini kamaytirishga qaratilgan.. Bu ishchilar uchun xavfsiz va qulay





mehnat sharoitlarini yaratib, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkimki, mehnat muhofazasi barcha iqtisodiy tarmoqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va choratadbirlar xodimlarning xavfsizligi va sog'lig'ini himoya qilishga qaratilgan. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va boshqa sohalarda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun yuridik, texnik va iqtisodiy choralar ishlab chiqilmoqda. Har bir tarmoqning o'ziga xos xavf-xatarlarini inobatga olish va xavfsizlikka oid zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mehnat sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning natijasida, iqtisodiy samaradorlik oshadi, baxtsiz hodisalar kamayadi va xodimlarning hayoti va sog'lig'i ta'minlanadi.

Umuman olganda, mehnat muhofazasini takomillashtirish, har bir iqtisodiy tarmoqda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-410-son. <https://lex.uz/docs/-3031427>
2. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/539>
3. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_554.pdf
4. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1315.pdf
5. O'.R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo'jaqulov, O.T.Hasanova. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. – T.: «Davr nashriyoti» MChJ, 2013, 11-12 betlar
6. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
7. <https://lex.uz/docs/-4285471>
8. <https://lex.uz/mact/-4762004>

